

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02  
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**KODIROVA UMIDA ASLONOVNA**

**VILLEMIT STRUKTURALI QATTIQ ERITMALAR ASOSIDA  
KERAMIK PIGMENTLAR SINTEZI VA XOSSALARI**

**02.00.15- Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)**

**Kodirova Umida Aslonovna**

Villemit strukturali qattiq eritmalar asosida keramik pigmentlar sintezi va xossalari.....3

**Кодирова Умида Аслоновна**

Синтез и свойства керамических пигментов на основе твердых растворов виллемитовой структуры.....21

**Kodirova Umida Aslonovna**

Synthesis and properties of ceramic pigments based on solid solutions of willemite structure.....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02  
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**KODIROVA UMIDA ASLONOVNA**

**VILLEMIT STRUKTURALI QATTIQ ERITMALAR ASOSIDA  
KERAMIK PIGMENTLAR SINTEZI VA XOSSALARI**

**02.00.15- Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/K905 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ionx.uz](http://www.ionx.uz)) va «ZiyoNET» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qodirova Zulayxo Raimovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Zakirov Baxtiyar Sabirjanovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rumi Marina Xristaforovna**  
kimyo fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona politexnika instituti**

Dissertatsiya ishi himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning «11» fevral 2025 yil soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90; E-mail: [ionx@academy.uz](mailto:ionx@academy.uz)).

Dissertatsiya ishi bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 55 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «28» yanvar kuni tarqatildi.  
(2025 yil «28» yanvardagi 55 - raqamli reestr bayonnomasi).



**Usanbayev N.X.**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

**J.S. Shukurov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., prof.

**Sh.S. Namazov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy  
seminar raisi, t.f.d., prof., akademik

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda zamonaviy materialshunoslikda yuqori haroratga chidamli materiallar yo‘nalishidagi fundamental tadqiqotlarni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu sohadagi muhim va istiqbolli yo‘nalishlardan biri shpinel, korund, granat, villemit kristall strukturalari asosida keramika pigmentlarni ishlab chiqarishdan iborat. Ta’kidlash lozimki, keramik pigmentlar asosan 1300-1400°C harorat oralig‘ida qimmat, taqchil, yuqori sifatli xomashyo komponentlaridan, ko‘p hollarda kimyoviy reagentlardan foydalanib sintez qilib olinadi. Yuqori haroratda sintez qilib olingan keramik pigmentlar chinni, sopol, shisha va qurilish sanoati uchun glazurlar, angoblar, shuningdek qoplamalar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Pishgan keramik mahsulotlarni bezashda kerakli rang diapazoniga ega yuqori haroratga chidamli pigmentlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda yuqori haroratga chidamli pigmentlarni sintez qilish, ularni turli xil keramik materiallarni bezash uchun glazurlar tarkibida qo‘llash hamda funksional, fizik-texnik va estetik xususiyatlarini yaxshilash bo‘yicha keng ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, turli kristall strukturalarga ega bo‘lgan keramik pigmentlarni sintez qilish; polikomponent sistemalar asosida yuqori haroratda pigment xomashyo omuxtasiga termik ishlov berishdagi fizik-kimyoviy va fazaviy o‘tish jarayonlarini boshqarish; rux, kobalt va kremniy oksidlarining yuqori harorat ta’sirida o‘zaro izomorf almashinishi va qattiq fazali kimyoviy reaksiyalar natijasida villemit va olivin strukturali qattiq eritma ko‘rinishidagi yangi kristall fazalar hosil bo‘lishining kinetik va mexanizmlarini aniqlash; turli haroratda kuydirishdagi “tarkib-struktura-dispers-xossa” funksional bog‘liqligini aniqlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda tabiiy gematit, glaukonit jinslari, gilli oxra hamda kimyoviy reaktivlardan foydalanib turli xil ranglardagi keramik pigmentlar tarkibini ishlab chiqish, sintez qilish jarayonlarini o‘rganish va ishlab chiqilgan pigmentlarni keramik mahsulotlarni glazurlashda qo‘llash hamda, ularning funksional va estetik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasida “qurilish materiallari hajmini ikki baravar oshirish, noan’anaviy noruda xomashyo va ikkilamchi resurslarni jalb etish hisobiga xomashyo bazasini kengaytirish va “Yashil iqtisodiyot”<sup>1</sup> doirasida chiqindisiz texnologiyani ishlab chiqish va joriy etish zarurligi ta’kidlangan. Bu borada, mahalliy xomashyo komponentlari asosida turli maqsadlardagi har xil strukturalarga ega keramik pigmentlar sintezi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60 sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot Strategiyasi” to‘g‘risidagi va 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947 sonli “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta usuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi” farmonlari, 2019 yil 23 maydagi PQ-4335 sonli

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son «2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni

“Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2016 yil 26 dekabrda, PQ-2698-son “2017-2019 yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining VII “Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Nashr etilgan adabiyot manbalarida turli strukturali keramik pigmentlar sintezi, ularning fizik-texnik xususiyatlarni va estetik xossalari yaxshilashga qaratilgan ilmiy izlanishlar keng yoritilgan. Keramik pigmentlarni sintez qilishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar G.N.Maslennikova, V.Pishch, N.V.Sedelnikova, L.F.Koroleva, V.M.Pogrebenkov, N.F.I.Pop. Radishevskaya, V.I.Vereshchagin, M.Dondi, G.Kosta, S.Yaojing, M.J. Ribeiro, Guo Feng, Weifeng Xie, X. Beglaryan, A. Isahakyan, A. Terzyan, V. Stepanyan, D. Elovikov, Melikyan S., N. Zulumyan, B. Ch Babu, R. M. Krsmanovich, A. E. Lavat, M. Llusar, E.Ozel va boshqa yetakchi olimlarning ilmiy maktablari tomonidan olib borilgan.

Respublikada mahalliy xomashyo resurslari asosida turli xil rangdagi keramik pigmentlar olish va polikomponent oksid sistemalarining fazaviy o‘zaro munosabat diagrammalarini qurish bilan ularning kristall strukturalarini, faza hosil bo‘lish jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha asosiy ilmiy ishlar N.A.Sirajiddinov, A.P.Irkaxo‘jaeva, R.I.Abdullayeva, Z.R.Qodirova, A.M.Eminov, A.A.Ismatov, J.I.Alimjanova, Sh.Yu.Azimov, D.K.Adilov, F.I.Erkaboyev kabi yetakchi olimlar va ularning o‘quvchilari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Ammo, muayyan natijalarga erishilgan bo‘lsada, villemit strukturali keramik pigmentlarni sintez qilish va funksional xususiyatlarini o‘rganish, sintez qilingan keramik pigmentlarda qattiq eritmani tashkil qiluvchi ionlarining izomorf almashinishida villemit strukturasi kristall fazalarini rang hosil bo‘lish kinetikasiga xomashyo hamda, ikkilamchi materiallarning ta’siri bo‘yicha ishonchli va ilmiy asoslangan ma’lumotlar mavjud emas.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Qurilish va texnik maqsadlarda foydalaniladigan funksional va silikat materiallarning energiya va resurs tejovchi tarkib va texnologiyalarini ishlab chiqish” (2020-2023yy.) budjet mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** villemit strukturali qattiq eritmalar asosida keramik pigmentlar sintez qilish va xossalarni tadqiq etish, hamda izomorfizm, fazaviy o‘tish jarayonlarini aniqlashdan iborat.

### **Tadqiqotni vazifalari:**

izomorfizm jarayonlari qonuniyatlarini tadqiq etish, villemit strukturali qattiq eritmalar sintezi va almashinayotgan atomlar kontsentratsiya oraliqlarini aniqlash;

“ZnO-CoO-SiO<sub>2</sub>” uchkomponentli sistema boshlang‘ich oksidlari asosida yuqori haroratli o‘zaro ta’sir jarayonida qattiq eritmalar strukturalarini hosil bo‘lish qonuniyatlarini tadqiq etish;

villemit strukturali qattiq eritmalar asosida sintez qilingan pigmentlarning fizik-kimyoviy, estetik xususiyatlarini va rang hosil bo‘lish ko‘rsatkichlarini aniqlash;

kremnezyomli xom ashyo komponentlaridan – “Jeroy” koni kvarts qumi va “O‘zmetkombinat” AJ amorf mikrokremnezyomlarining kimyoviy-mineralogik tarkiblari, fizik-kimyoviy xossalari tadqiq etish;

villemit strukturali keramik pigment namunasining sintez haroratiga, rangi va fizik-texnik xususiyatlariga, kvarts qumi, mikrokremnezyom, xromofor oksidlari kontsentratsiyalarining ta’sirini aniqlash;

“Co<sub>2</sub>SiO<sub>4</sub>-Zn<sub>2</sub>SiO<sub>4</sub>” binar va “ZnO-CoO-mikrokremnezyom” uchlamchi polikomponent sistemalarining fazaviy o‘zaro munosabat va rang o‘zgarish xususiyatlari diagrammalarini qurish;

sintez qilingan villemit strukturali keramik pigmentning funktsional hamda rang xususiyatlarini aniqlash va ulardan keramik koshinlar uchun glazur tarkibida foydalanish.

**Tadqiqotning ob’ekti** sifatida mahalliy xomashyo komponentlari – kimyoviy reaktivlar, Jeroy koni kvarts qumi, “O‘zmetkombinat” AJ ferrosilitsiy ishlab chiqarish chiqindisi mikrokremnezyom, sintez qilingan keramik pigmentlar va ular asosida glazurlangan koshin namunalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** villemit strukturali qattiq eritmalar kristall fazalaridagi izomorfizm, fazaviy o‘tish jarayonlarini sintez qilingan keramik pigmentlar kuydirish haroratlariga, fizik-kimyoviy va funktsional xossalari bog‘likligini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari (minerologik, rentgenospektral, rentgenofazali, differensial-termik, IQ-spektroskopik, optik, elektron mikroskopik) va keramik pigmentlar olish texnologiyasining an’anaviy usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

rux, kobalt oksidlari va kremnezyom tarkibli komponentlarning 800-1300 °C harorat oralig‘ida qattiq eritmalar hosil bo‘lishining qattiq fazali reaksiyalari hamda ularning fizik-kimyoviy xossalari, kristall fazalarning struktura hosil bo‘lish kinetikasi va mexanizmi aniqlangan;

villemit strukturali qattiq eritmalar asosida keramik pigmentlarni sintez qilish haroratiga “tarkib-struktura-disperslik-xossa” o‘zaro bog‘liqligi asoslangan;

qattiq eritma tarkibida kremnezyomni 27,0 mas.% miqdoridagi mikrokremnezyomga almashtirilganda, kvarts qumidan foydalanilgan natijalar bilan solishtirilganda pigment pishish haroratini 1250°C dan 1150°C gacha pasayishi isbotlangan;

“Zn<sub>2</sub>SiO<sub>4</sub>-Co<sub>2</sub>SiO<sub>4</sub>” ikkilamchi sistemasida Zn<sup>2+</sup> va Co<sup>2+</sup> ionlarining yuqori haroratdagi o‘zaro ta’sir vaqtidagi izomorfizm mexanizmini va qattiq fazali sintez,

hamda “ZnO–CoO–mikrokremnezyom” uchlamchi sistema asosidagi qattiq eritmalar hosil bo‘lish qonuniyatlari aniqlangan;

amorf mikrokremnezyomdan foydalanib sintez qilingan keramik pigmentlar rangining to‘yinganlik va yuqori haroratga barqarorlik darajasi, hamda kimyoviy muhitga chidamlilik xossalari aniqlangan;

olingan kobalt tarkibli villemit strukturaga ega keramik pigmentlarni turli maqsadlardagi keramik materiallar uchun glazur tarkibida foydalanish mumkinligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kvarts qumi va kremnezyom tarkibli chiqindilardan foydalanib, rangli keramik pigmentlar tarkibini ishlab chiqish hamda sintez qilish imkoniyatlari asoslangan;

berilgan rang xususiyatlariga ega bo‘lgan keramik koshinlarni glazur bilan bo‘yash uchun “ZnO–CoO–mikrokremnezyom” uchlamchi sistemasi asosida sintez qilingan keramik pigmentlarning tarkiblari maqbullashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** olingan natijalar, zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari va keramik pigmentlar olish texnologiyasining an’anaviy tadqiqot usullari natijalari, hamda yangi tarkibdagi keramik pigmentlarni ishlab chiqarish sharoitida tajriba sinovlaridan o‘tkazilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “ZnO-CoO-mikrokremnezyom” polikomponent sistemasidagi izomorfizm, fazaviy o‘tish jarayonlari, villemit strukturali yangi keramik pigmentlar sintez qilishda qattiq eritma kristall faza strukturalarining shakllanishi, rang hosil qilish va fazaviy o‘zaro munosabat diagrammalarini qurish, shuningdek, “tarkib-struktura-disperslik-xossa” funksional bog‘liqligining sintez haroratidan o‘zgarishini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy tabiiy va sun’iy xomashyo komponentlari asosida talab darajasidagi, import o‘rnini bosuvchi yuqori haroratga chidamli, villemit strukturali keramik pigmentlarning resurs tejankor tarkiblarini, hamda ularni past haroratda olish texnologiyasini ishlab chiqish bilan asoslanadi, shuningdek, Respublikada ekologik holatini yaxshilash orqali xomashyo bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Villemit tuzilishga ega keramik pigmentlarni mahalliy xomashyo asosida sintez qilish va xossalarni o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalarga asoslanib:

noan’anaviy mahalliy xomashyo va ikkilamchi komponentlardan foydalanib keramik pigmentlar uchun loyihalashtirilgan tarkiblarni sintez qilish jarayonidagi qattiq fazali reaksiyalari “Qurilish va texnik maqsadlarda foydalaniladigan funksional va silikat materiallarning energiya va resurs tejovchi tarkib va texnologiyalarini ishlab chiqish” (2020-2023yy.) budjet mavzusi bo‘yicha tadqiqotlarni bajarishda qo‘llanma material sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 11 iyuldagi 1-10/8-808-son ma’lumotnomasi). Natijada, turli (villemit) strukturali qattiq eritmalar sintezi, izomorfizmi, fazaviy nisbatlari va kristall hosil qilishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan fundamental ma’lumotlar olish imkonini bergan;

yuqori kremnezyomli xomashyo komponentlaridan foydalanilgan villemit strukturali qattiq eritmalar asosidagi glazur tayyorlash uchun ishlab chiqilgan

keramik pigmentlarning retseptur tarkiblari “ART GLOSS GALLERY” QK ning «2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo‘yicha istiqbolli ishlanmalar ro‘yhati»ga kiritilgan (“ART GLOSS GALLERY” QKning 2024 yil 10 oktabrdagi 10/II 2024-1 - son ma‘lumotnomasi). Natijada, pardozebop koshinlarga glazur tayyorlash uchun villemit strukturali talab darajasidagi keramik pigmentlar olish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 3 ta xorijiy va 3 ta respublika ilmiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusi, o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Keramika pigmentlari sintezining hozirgi holati va ularning rivojlanish istiqbollari. Strukturaviy tasnifi, xossalari va tayyorlash usullari”** deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-texnik adabiyotlarda va elektron manbalarda mavjud bo‘lgan ishlarni tanqidiy tahlil qilish natijalari, so‘nggi nashr etilgan ishlar, shuningdek, keramik pigmentlarni ishlab chiqarishda mineral xomashyo va ikkilamchi resurslardan foydalanishning hozirgi rivojlanish tendensiyalari va ma‘lumotlari keltirilgan. Mavjud yutuqlar bilan bir qatorda, bu yo‘nalishda kristal fazalarning faza hosil bo‘lish mexanizmi va kinetikasini, izomorfizm jarayonini, rux, kobalt oksidlari o‘rtasidagi qattiq fazali kimyoviy o‘zaro ta‘sirini aniqlash va ikkilamchi va uchlamchi sistemalarda silikat komponentlarini turli hil haroratlarda kuydirish bo‘yicha maqsadli tadqiqotlar olib borish bilan bog‘liq muammolar mavjudligi ko‘rsatilgan. Villemit va kobaltli olivin kristall fazalarining struktura hosil bo‘lishi va polikomponent oksidli birikmalar hamda kremnezyom tarkibli komponent asosida sintez qilingan qattiq eritmaning fizik-kimyoviy xossalari o‘rganish bo‘yicha ma‘lumotlar muhokama qilingan. Natijada nashr etilgan ishlarni tanqidiy tahlil qilishda ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich komponentlarning xususiyatlari, sintez usullari va uni amalga oshirishning asosiy usullari ”** deb nomlangan ikkinchi bobida keramik pigmentlar omuxta tarkiblarini tuzish uchun ishlatiladigan dastlabki komponentlarning xususiyatlari, mahalliy xomashyo komponentlari, xususan, kimyoviy reagentlar, Jeroy kvars qumi va “O‘zmetkombinat” AJning

mikrokremnezyomi asosida pigmentlarni sintez qilish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ularning elementar, kimyoviy va mineralogik tarkibi, fizik-kimyoviy xossalari, sintez jarayonlari va pigment namunalarini yuqori haroratda qayta ishlashda fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy va keramik materiallarining klassik texnologiyasining an'anaviy usullaridan foydalanib o'rganilgan. Kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra, kvarts qum tarkibidagi kremniy oksidi ( $\text{SiO}_2$ ) ning miqdori 97,27–97,64 mas. % ni, mikrokremnezyomda esa 91 mas. % dan kam emasligini ko'rsatdi. Ushbu ma'lumotlar ularning kimyoviy toza oksidlarga yaqinligini va keramik pigmentlar sintezi uchun foydalanish imkoniyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot olib borish uchun qattiq fazali sintez usuli yordamida 850-1300°C harorat oralig'ida kuydirish yo'li bilan villemit strukturali keramik pigmentlarning tajribaviy namunalari olingan.

Dissertatsiyaning “**Villemit strukturali qattiq eritmalari asosida keramika pigmentlar sintezi va izomorfizmi, strukturasini shakllantirish va rang hosil qilish jarayonlari va fizik-kimyoviy tadqiqotlar natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida pigmentlarning sintezi va fizik-kimyoviy xossalari, villemit mineralining kristall fazalarining struktura hosil bo'lish kinetikasi bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Tajriba tadqiqotlarini olib borish uchun kimyoviy reagentlardan - rux, kobalt, kremniy oksidlari, shuningdek kvarts qumi va mikrokremnezyom ishlatilgan. 1-jadvalda  $\text{ZnO}+\text{CoO}$  aralashmalari asosida sintez qilingan pigmentlarning komponent tarkibi ko'rsatilgan, har bir tarkibga mos ravishda 27 mas. % miqdorida kremniy oksidi ( $\text{SiO}_2$ ), kvarts qumi, mikrokremnezyom kiritilgan.

### 1-Jadval

#### Kremniy oksidi, kvarts qumi va mikrokremnezyomdan foydalangan holda villemit strukturali pigmentlarning komponent tarkibi


Sintez qilingan pigmentlar	Tarkib, mas. %		Sintez qilingan pigmentlar	Tarkib, mas. %	
	ZnO	CoO		ZnO	CoO
$\text{Zn}_2\text{SiO}_4$	73,0	-	$\text{Zn}_{1,0}\text{Co}_{1,0}\text{SiO}_4$	36,50	36,50
$\text{Zn}_{1,9}\text{Co}_{0,1}\text{SiO}_4$	69,35	3,65	$\text{Zn}_{0,8}\text{Co}_{1,2}\text{SiO}_4$	29,20	43,80
$\text{Zn}_{1,8}\text{Co}_{0,2}\text{SiO}_4$	65,70	7,30	$\text{Zn}_{0,6}\text{Co}_{1,4}\text{SiO}_4$	21,90	51,10
$\text{Zn}_{1,6}\text{Co}_{0,4}\text{SiO}_4$	58,40	14,60	$\text{Zn}_{0,4}\text{Co}_{1,6}\text{SiO}_4$	14,60	58,40
$\text{Zn}_{1,4}\text{Co}_{0,6}\text{SiO}_4$	51,10	21,90	$\text{Zn}_{0,2}\text{Co}_{1,8}\text{SiO}_4$	7,30	65,70
$\text{Zn}_{1,2}\text{Co}_{0,8}\text{SiO}_4$	43,80	29,20	$\text{Co}_{2,0}\text{SiO}_4$	-	73,00

1150-1300°C harorat oralig'ida kremniy oksidi, kvarts qumi va mikrokremnezyomdan foydalanib, sintez qilingan pigment namunalarining rentgen fazali tahlili natijalari (1-rasm) keltirilgan.

1300°C haroratda kremniy oksididan, 1250°C haroratda kvarts qumidan va 1150°C haroratda esa mikrokremnezyomdan foydalanib olingan namunalarida villemit ( $\text{Zn}_2\text{SiO}_4$ ) strukturalari bilan mos keladigan diffraksiya maksimumlari  $d = 0,698; 0,435; 0,410; 0,403; 0,349; 0,326; 0,315; 0,284; 0,264; 0,232; 0,214; 0,202; 0,194; 0,186; 0,169; 0,164; 0,160; 0,155; 0,155; 0,152; 0,142; 0,139; 0,136$  nm va olivinli ( $\text{Co}_2\text{SiO}_4$ )  $d=0,278; 0,258; 0,252; 0,246; 0,207; 0,204; 0,175; 0,149; 0,148$  nm va fazalar mavjudligini ko'rsatdi.


Kuydirish jarayonida mikrokremnezyomdan foydalangan holda keramik pigmentlar namunalarini olishda, kremniy oksidi va kvarts qumidan foydalanib

sintez qilingan pigmentlarga nisbatan kuydirish harorati 100-150°C ga pasayishi aniqlandi. Shuning uchun pigmentlarning sintezi bo'yicha keyingi tadqiqotlar mikrokremnezyomdan foydalanib 850-1150°C harorat oralig'ida 180 daqiqa ushlab turish vaqti bilan amalga oshirildi.



**1-Rasm. Kremniy oksidi (a), kvarts qumi (b) va mikrokremnezyom (c) foydalanib sintez qilingan pigment namunalarining rentgenogrammasi**

Pigment sintezi uchun  $ZnO+CoO+SiO_2$  aralashmasida fazaviy o'zgarishlar va kristall fazalar strukturasi shakllantirish jarayonlarini aniqlash uchun DTA 1200°C haroratgacha o'tkazildi (2-rasm).




**2-Rasm. ZnO+CoO+SiO<sub>2</sub> aralashmasining DTA egri chizilari**

DTA egri chizig'ida faqat 4 ta ekzotermik effekt aniqlangan. Ulardan birinchisi, 573°C haroratdagi ekzoeffekt  $\beta$ -kvartsning  $\alpha$ -kvartsga polimorf o'zgarishini bilan bog'liq. 943°C haroratda aniqlangan ekzoeffekt CoO ning shakllanishi bilan bog'liq. 1015°C da ekzotermik ta'sirning ko'rinishi olivin ( $Co_2SiO_4$ ) strukturasi shakllanishiga to'g'ri keladi. Namunaning DTA egri chizig'ida 1112°C haroratda ekzotermik ta'sirning mavjudligi villemite mineral

shakllanishiga olib keladigan faza o'zgarishlarining boshlanishi bilan bog'liq. Chunki bu harorat oralig'ida olivin, villemmit va ularning qattiq eritmaları  $Zn_{2-x}Co_xSiO_4$  villemmit tuzilishining hosil bo'lishi sodir bo'ladi.

Mikrokremnezyomdan foydalanib, turli konsentratsiya tarkibli  $Zn_2SiO_4$ ;  $Zn_{1,5}Co_{0,5}SiO_4$ ;  $Zn_{1,0}Co_{1,0}SiO_4$ ;  $Zn_{0,5}Co_{1,5}SiO_4$ ;  $Co_2SiO_4$  sintez qilingan pigmentlarning rentgenogrammasi 3-rasmda ko'rsatilgan.

RFA natijalariga ko'ra,  $Zn_2SiO_4$  namunaning rentgenogrammasida villemmit mineraliga tegishli  $d=0,202$ ;  $0,186$ ;  $0,169$ ;  $0,164$ ;  $0,160$ ;  $0,155$ ;  $0,152$ ;  $0,142$  va  $0,136$  nm difraksiya maksimumlari mavjudligi kobalt oksidini izomorf almashinish miqdorini ortishi bilan sintez qilingan pigmentlarning  $Zn_{1,5}Co_{0,5}SiO_4$  qattiq eritmasi tarkibida difraksiya maksimumlari soni o'zgarmasligi, lekin intensivligi pasayishi aniqlandi. Kobalt oksidi holdagi xromoforning konsentratsiyasi  $Zn_{1,0}Co_{1,0}SiO_4$  tarkibiga oshirilganda pigmentlarda villemmit, hamda olivinning  $Co_2SiO_4$   $d=0,278$ ,  $0,258$ ,  $0,252$ ,  $0,246$  va  $0,175$  nm bir necha kristall fazalardan iborat murakkab strukturasi va oz miqdorda  $\alpha$ -kvars  $d=0,334$ ,  $0,245$  va  $0,228$  nm hosil bo'ladi.  $Zn_{0,5}Co_{1,5}SiO_4$  tarkibli pigmentning rentgenogrammasida, villemmit minerallarga mos keladigan difraksiya maksimumlarining soni va intensivligining parallel ravishda pasayishi, olivinning difraksiya chizig'ining ortishi kuzatilgan. Villemitsiz qattiq eritmali pigment namunasi rentgen diffraksiyalari difraksiya maksimumlari pigment tarkibida rentgenogrammasida barcha aniqlangan difraksiya maksimumlari olivin mineraliga tegishli.  $Co_2SiO_4$  pigment tarkibida rux oksidi to'liq kobalt oksidi bilan almashtirilganda, asosiy faza faqat olivin mineralidan iborat.




### 3-Rasm. Sintez qilingan pigment namunalari rentgenogrammasi

Olingan rentgen fazalarini tahlil qilish ma'lumotlarini muhokama qilishda, Rietveld usulidan foydalangan holda "Crystall impact match" dasturidan keramik pigmentlarning sintez qilingan namunalari hosil bo'lgan kristalli fazalari soni foizlarda aniqlandi, ularning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

**1150 °C haroratda sintez qilingan keramik pigment namunalarining  
fizik-kimyoviy xossalari**

Pigmentlar formulasi	Krystall fazasi	Krystall faza miqdori, %	Krystalitlarning hisoblangan o'lchami, nm
$Zn_2SiO_4$	Villemit- $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	100 -	63,47
$Zn_{1,8}Co_{0,2}SiO_4$	Villemit - $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	100 -	61,98
$Zn_{1,6}Co_{0,4}SiO_4$	Villemit - $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	97,0 3,0	59,82
$Zn_{1,4}Co_{0,6}SiO_4$	Villemit - $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	93,7 6,3	58,05
$Zn_{1,2}Co_{0,8}SiO_4$	Villemit - $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	88,9 11,1	56,35
$Zn_{1,0}Co_{1,0}SiO_4$	Villemit - $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	81,7 18,3	54,08
$Zn_{0,8}Co_{1,2}SiO_4$	Villemit - $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	56,5 33,5	52,38
$Zn_{0,6}Co_{1,4}SiO_4$	Villemit - $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	39,7 60,3	50,67
$Zn_{0,4}Co_{1,6}SiO_4$	Villemit - $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	27,1 72,9	48,97
$Zn_{0,2}Co_{1,8}SiO_4$	Villemit - $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	13,8 86,2	47,27
$Co_{2,0}SiO_4$	Villemit - $Zn_2SiO_4$ Olivin - $Co_2SiO_4$	- 100	46,47

3 soat davomida  $Zn_2SiO_4$ ,  $Zn_{1,5}Co_{0,5}SiO_4$ ,  $Zn_{1,0}Co_{1,0}SiO_4$ ,  $Zn_{0,5}Co_{1,5}SiO_4$  va  $Co_2SiO_4$  ta'sirida 1150°C da kuydirilgan namunalarning IQ- spektroskopik tahlili natijalarida (4-rasm)  $459\text{ cm}^{-1}$  da tebranish chastotasi  $[SiO_4]^{4-}$  tetraedrning assimetrik egilish tebranishlarini va sintez qilingan pigmentning barcha namunalarida mavjudligini ko'rsatdi.



**4-Rasm**  
Sintez qilingan pigment namunalarining IQ-spektri:  
a-  $Zn_2SiO_4$ ;  
b-  $Zn_{1,5}Co_{0,5}SiO_4$ ;  
v-  $Zn_{1,0}Co_{1,0}SiO_4$ ;  
g-  $Zn_{0,5}Co_{1,5}SiO_4$ ;  
d-  $Co_2SiO_4$

890, 931, 971  $\text{cm}^{-1}$  da tebranish chastotalari  $[SiO_4]^{4-}$  va 864  $\text{cm}^{-1}$  tetraedrlarning assimetrik valentli tebranishlari  $[SiO_4]^{4-}$  tetraedrlarning simmetrik valent tebranishlariga mos keladi. 612  $\text{cm}^{-1}$  va 571  $\text{cm}^{-1}$  tebranish chastotalari  $[ZnO_4]^{6-}$  tetraedrning assimetrik va simmetrik valentlik tebranishlariga va 575,

667, 949  $\text{cm}^{-1}$  oktaedral muvofiqlashtirilgan kobalt  $[\text{CoO}_6]^{4-}$  bilan panjaraning assimetrik va simmetrik cho‘zilish tebranishlariga tegishlidir. Olingan spektroskopik ma’lumotlari villemit strukturasi ko‘pburchak komponentlari -  $[\text{SiO}_4]^{4-}$  va  $[\text{ZnO}_4]^{6-}$  tetraedrlarning shakllanishi tugaganligini ko‘rsatadi, bunda kremniy va rux kimyoviy elementlarning koordinatsion raqamlari 4 ga teng va namuna massasining yakuniy yo‘qolishi vaqtida kristallanish  $\alpha\text{-Zn}_2\text{SiO}_4$  hosil bo‘lishiga olib keladi. Shuni ta’kidlash kerakki, sintez natijasida villemit va kobalt olivinlari orasida qattiq eritmalar hosil bo‘ladi. Yengilroq rux atomini og‘irroq kobalt atomi bilan almashtirish (CoO miqdori ortib borishi bilan) IQ-spektridagi yutilish zonalarining past chastotali mintaqaga siljishiga olib keladi, bu esa qattiq eritmalar hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.


Qattiq eritmalar hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan diffraksiya maksimumlarining kichikroq burchaklarga siljishi rentgen fazali tahlil bilan ham tasdiqlanadi (3-jadval).

### 3-Jadval

#### Pigmentlar tarkibidagi villemit kristall panjarasi geksagonal singoniyasining elementar yacheyka parametrlarini CoO miqdoriga bog‘liqligi

Sintez qilingan pigmentlar	CoO miqdori mas. %	Geksagonal strukturali yacheykaning elementar parametrlari, Å
$\text{Zn}_2\text{SiO}_4$	-	a-13,9767; c-9,3477
$\text{Zn}_{1,8}\text{Co}_{0,2}\text{SiO}_4$	6,667	a-13,9710; c-9,3340
$\text{Zn}_{1,6}\text{Co}_{0,4}\text{SiO}_4$	13,33	a-13,9676; c-9,3301
$\text{Zn}_{1,4}\text{Co}_{0,6}\text{SiO}_4$	20,00	a-13,9676; c-9,3301
$\text{Zn}_{1,2}\text{Co}_{0,8}\text{SiO}_4$	26,67	a-13,9767; c-9,3477
$\text{Zn}_{1,0}\text{Co}_{1,0}\text{SiO}_4$	33,33	a-13,9480; c-9,3150


SEM natijalariga ko‘ra (5-rasm), 1150 °C da sintez qilingan keramik pigmentlarning mikrorasmlarida o‘lchamlari bir necha yuz nanometrdan 7-12 mkm gacha bo‘lgan aglomeratlar aniqlangan, ammo ularning ichki tuzilishi morfologik jihatdan farq qiladi.



5-Rasm. Sintez qilingan pigment namunalarining SEM rasmi.

a)  $\text{Zn}_2\text{SiO}_4$ , b)  $\text{Zn}_{1,5}\text{Co}_{0,5}\text{SiO}_4$ , v)  $\text{ZnCoSiO}_4$ , g)  $\text{Zn}_{0,5}\text{Co}_{1,5}\text{SiO}_4$ , d)  $\text{Co}_2\text{SiO}_4$

SEM tahlilining (6-rasm) olingan natijalari shuni ko‘rsatadiki, sintez qilingan keramik pigmentlari nanog‘ovak panjaraga ega bo‘lib, ularda villemitning geksagonal strukturali aniq shakllangan zarralari topilgan. Berilgan EDS spektrlari har bir pigment namunasida namuna yuzasida faqat Zn, Co, Si va O kimyoviy elementlar mavjudligini tasdiqlaydi



**6-Rasm. 1150 °C haroratda sintez qilingan  $Zn_{1,5}Co_{0,5}SiO_4$  pigmentining SEM va EDS tahlillari natijalari**


Yuqoridagi ma‘lumotlardan mikrokremnezyom faoydalanib ko‘k rangli kobalt-villemit pigmentlarini olish mumkinligi aniqlandi. Shu munosabat bilan sintez qilingan pigment glazurlarni ishlab chiqarish uchun rang beruvchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Binar va uchlamchi sistemalarda villemit strukturasi fazaviy munosabatlari va rang shakllanishi. Tadqiqot natijalari va ularning amaliy tavsiyalarini muhokama qilish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida « $Zn_2SiO_4-Co_2SiO_4$ », “ZnO-mikrokremnezyom”, “CoO-mikrokremnezyom”, “ZnO-CoO” ikkilamchi sistemalari namunalari fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilish va ularning fazaviy o‘zaro bog‘liqlik diagrammalarini qurish, shuningdek “ZnO-CoO-mikrokremnezyom” uchlamchi sistemasi asosida sintez qilingan pigmentlarning rang xususiyatlarini aniqlash natijalari keltirilgan.

“ $Zn_2SiO_4-Co_2SiO_4$ ” sistemasining fazaviy o‘zaro munosabatlar diagrammasidan ko‘rinib turibdiki,  $Co_2SiO_4$  ni villemit tarkibiga ( $Zn_2SiO_4$ ) kiritganda to‘liq izomorf almashinish orqali villemit strukturali  $Zn_{2-x}Co_xSiO_4$  qattiq eritmaları hosil bo‘ladi. “ $Zn_2SiO_4-Co_2SiO_4$ ” sistemasida  $Co_2SiO_4$  konsentratsiyasi 82 % dan ortishi bilan struktura olivina o‘zgaradi va  $Co_{2-x}Zn_xSiO_4$  qattiq eritmaları hosil bo‘ladi (7-rasm).

“Mikrokremnezyom – ZnO” sistemasi asosidagi ikkilamchi diagrammada (8-rasm) 1410 va 1475 °C haroratda ikkita evtektika mavjud bo‘lib, ular 50% ZnO + 50% mikrokremnezyom va 80% ZnO + 20% mikrokremnezyom kompozitsiyalariga mos keladi. Diagrammada ZnO 3% dan 68% gacha va

mikrokremnezyomning 32 % dan 97% gacha konsentratsiya oralig'ida  $\alpha$ -tridimit va  $Zn_2SiO_4$  minerallari mavjudligi aniqlangan. Konsentratsiya tarkibida 3 % dan 32 % gacha mikrokremnezem va 68 % dan 97% gacha ZnO bo'lgan kompozitsiyalarda  $Zn_2SiO_4$  va ZnO ning kristal fazalari mavjudligi aniqlandi. Har bir boshlang'ich komponentga yaqinroq kompozitsiyalarda esa tridimit va rux oksidiga tegishli soxalar mavjud. 1410-1590°C harorat oralig'ida boshlang'ich mikrokremnezemdan konsentratsiya tarkibida 50 % gacha ZnO bo'lgan oraliqda  $\alpha$ -kristobalit kristall fazasi va qisman suyuqlik hosil bo'lishi aniqlandi.



7-Rasm. “ $Zn_2SiO_4 - Co_2SiO_4$ ” ikkilamchi sistemasining fazaviy o‘zaro munosabatlar diagrammasi

1410-1470 °C harorat oralig'ida 50 % ZnO + 50 % mikrokremnezyom konsentratsiya tarkibidan , 80 % ZnO va 20 % tarkibgacha, ushbu diagrammada  $\alpha$ -tridimit +  $Zn_2SiO_4$  + L aralashmasiga tegishli ekanligi aniqlandi.


Harorat 1470 dan 1990 °C gacha ko‘tarilganda ZnO 80 % dan 97 % gacha konsentratsiya oralig'ida, (ZnO + S) suyuqlik bilan sof rux oksidining kristal fazasi hosil bo‘ldi. Likvidus sohasida, ya’ni dastlabki komponentlarning (kremnezyom va rux oksidi) erish haroratidan yuqorida, sistemaning suyuqlangan dastlabki komponentlari asosidagi gomogen suyuq faza mavjudligi aniqlandi.

“CoO- mikrokremnezyom” sistemasi asosidagi ikkilamchi diagrammada (8-rasm) ko‘rsatilganidek, 1360°C haroratda bitta evtektika mavjud bo‘lib, 60 % CoO + 40 % mikrokremnezyom konsentratsiya tarkibiga mos keladi. “CoO- mikrokremnezyom” sistemasining konsentratsiya diapazonida olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, dastlabki mikrokremnezyomdan 32 %

mikrokremnezyom + 68 % CoO tarkibigacha bo'lgan tarkibda evtektik harorat chegarasigacha  $\alpha$ -tridimit +  $\text{Co}_2\text{SiO}_4$  aralashmasi hosil bo'lishi aniqlandi.

Haroratning oshishi bilan mikrokremnezyom polimorfizmi yuzaga keladi, buning natijasida kremnezyom  $\alpha$ -tridimit va  $\alpha$ -kristobalit modifikatsiyalari hamda qisman suyuq faza hosil bo'lishi aniqlandi. Ushbu konsentratsiya oralig'idan dastlabki 3 % CoO gacha 1510°C haroratgacha kobaltli olivin + CoO hosil bo'ladi, bu haroratdan yuqorida esa suyuq faza shakllanishi boshlanadi.

Tadqiqotlar natijasida hosil bo'lgan birikmalar va qattiq eritmalarning izotermik chiziqlarini ko'rsatuvchi ikkilamchi sistemalarning politermik kesmalari bilan "ZnO-CoO-mikrokremnezyom" uchlamchi sistemasining fazaviy o'zaro munosabatlar diagrammasi qurildi (8-rasm).




**8-Rasm. "ZnO-CoO-mikrokremnezyom" uchlamchi sistemasining ikkilamchi politermik kesimlar bilan fazaviy o'zaro munosabatlar diagrammasi**

Shunday qilib, yuqori haroratli ishlov berish jarayonlarini tajribaviy o'rganish natijasida "ZnO-CoO-mikrokremnezyom" uchlamchi sistemasida yangi minerallarning kristalli fazalari va qattiq eritmalarning struktura hosil bo'lish sohalari solidus va likvidus chegaralarida aniqlandi.

Uchlamchi sistemaning konsentratsion tarkiblari asosida izovalent izomorfizm natijasida rux oksidini kobalt oksidiga to'liq yoki qisman

almashtirishga bog'liq holda, ko'kdan binafsha-ko'k ranggacha bo'lgan rang diapazoniga ega keramik pigmentlarning bir qator namunalari sintez qilindi. Umuman olganda, ushbu uchlamchi sistemaning konsentratsion tarkiblarining namunalari rang o'zgarish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan keramik pigmentlarni ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo komponenti bo'lib xizmat qiladi.

Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra, to'yingan ko'k va intensivligi yuqori ranglarga ega bo'lganligi bilan  $Zn_{1,6}Co_{0,4}SiO_4$ ,  $Zn_{1,4}Co_{0,6}SiO_4$  va  $Zn_{1,0}Co_{1,0}SiO_4$  tarkib namunalari maqbul tarkiblar xisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, import qilinayotgan shpinel strukturali pigmentlar bilan solishtirilganda chiqindidan foydalanib sintez qilingan villemite strukturali pigmentlar o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan. Sintez qilingan pigment namunalari fotosuratlarida 9-rasmda keltirilgan.



**9-Rasm. Sintez qilingan pigment namunalari:**  
**a- $Zn_{2,0}SiO_4$ ; b- $Zn_{1,8}Co_{0,2}SiO_4$ ; c- $Zn_{1,6}Co_{0,4}SiO_4$ - $Zn_{1,4}Co_{0,6}SiO_4$ ;**  
**e- $Zn_{1,2}Co_{0,8}SiO_4$ ; f-  $ZnCoSiO_4$**

Rangli keramik glazurlar olish uchun dastlabki glazur tarkibiga 2-6 mass.% oralig'ida sintez qilingan pigment pishirishdan keyingi glazurning istalgan rang effekti va soyasiga qarab qo'shildi. Institut laboratoriyasida oldindan tayyorlab olingan keramik pigment namunalari fizik-mexanik xususiyatlari 4-jadvalda keltirilgan.

**4-Jadval**

**Olingan pigment namunalari fizik-mexanik xususiyatlari**

Xususiyatlari	GOST18671-73 bo'yicha	Namuna ko'rsatkichlari
Qoplash hajmi, $g/m^2$ , ortiq emas	14	13,9
Suvda eriydigan moddalarning massa ulushi, %	0,5	0,25
pH	6 - 8	7,2
0063 nam elakdan keyin qoldiq, %, ortiq emas	0,2	0,2
Rang	ko'k	ko'k

Shu bilan birga, bezakbop koshinlarning asosiy mavjud ishlab chiqarish liniyasidagi omuxta tarkibi asosida texnologik parametrlarga o'zgartirish kiritilmagan holda ishlab chiqarildi.

Ishlab chiqarishdagi oq bo'g'iq rangsiz glazurga kobaltli pigment qo'shilgan holda har biri 1,0 l bo'lgan tajriba rangli sirlarning uchta tarkibi sinovdan o'tgan

kobaltli pigmentning turli tarkibi bilan tayyorlangan. Shu bilan birga, tajribaviy glazurlar ko'kning asl rang soyalarida farq bor edi. Namlangan glazurdagi kobaltli pigment miqdori, zichligi va ularning rang soyalari 5-jadvalda keltirilgan.

### 5-Jadval

#### Kobaltli pigmentning glazur tarkibidagi miqdori va rang o'zgarish xususiyatlari

Namunalar	Kobaltli pigmentning mas.% miqdori,	Glazur zichligi, g/sm <sup>3</sup>	Rang o'zgarishi
Namuna, a	2	1,26	Moviy ko'k
Namuna, b	4	1,27	Ko'k
Namuna, B	6	1,30	To'q ko'k

Glazurlangan namunalar 110°C da 1 soat mobaynida quritish shkafida quritildi va quritilgan namunalar 980-1100°C harorat oralig'ida konveyerli rolikli pechda pishirildi. Olingan glazurlangan keramik koshinlar (10-rasm) pufakchalarsiz, dog'larsiz va buzilishlarsiz silliq, tiniq bir xil sirtga egaligi aniqlandi.



**Rasm 10. Olingan pigmentlar asosida glazurlangan keramik koshin namunalari**

Shunday qilib, villemit strukturali pigmentlardan foydalanib glazurlangan keramik koshinlar namunalari sinovdan o'tkazishda ijobiy natijalarga erishildi. Ishlab chiqilgan keramik pigmentlarni turli maqsadlardagi keramik koshinlar ishlab chiqarish uchun ko'k rangli glazurlar tarkibiga qo'shib ishlatish mumkinligi aniqlandi.

### XULOSA

1. Pigment sintezining yuqori haroratli jarayonlari, keramik pigmentlarning fizik-kimyoviy va o'ziga xos xossalari, shuningdek, rang xususiyatlari va ularning keng tasnifi bo'yicha nashr etilgan ishlarning ilmiy-texnik manbalarida mavjud bo'lgan tadqiqot natijalari tanqidiy tahlil qilingan va umumlashtirilgan.
2. Zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida Jeroy koni kvarts qumi, "O'zmetkombinat" AJning ferrosilitsiy ishlab chiqarish chiqindisi bo'lgan mikrokremnezyomning kimyoviy-mineralogik, granulometrik tarkibi, fizik-kimyoviy xossalari, shuningdek, ular asosida sintez qilingan pigment

namunalarining kimyoviy tarkiblari ishlab chiqilib, fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganilgan.

3. Turli haroratlarda kuydirilgan villemmit strukturali pigment namunalarining kristall fazalarini hosil bo'lish kinetikasi va mexanizmi tadqiqotning zamonaviy fizik-kimyoviy usullari yordamida tadqiq qilingan.
4. Reaktiv oksidlar asosidagi villemmit strukturaga ega pigmentlarning kristall fazalarining maksimal hosil bo'lishi 1300°C haroratda 180 daqiqa davomida ushlab turish bilan erishilishi aniqlangan. Kvars qumidan foydalangan holda bunday sintez sharoitlari va rejimida bu jarayon 1250°C haroratda mikrokremnezyom yordamida esa villemmit strukturali pigmentlarning maksimal shakllanish harorati 1150°C gacha kamayganligi aniqlangan.
5. "ZnO-mikrokremnezyom", "CoO-mikrokremnezyom", "ZnO-CoO" binar sistemalari konsentratsion tarkiblarining fizik-kimyoviy xossalari hamda "ZnO-CoO-mikrokremnezyom" uchlamchi sistemasini kuydirish va kristallanish jarayonlari o'rganilgan. Villemmit va olivin minerallari hamda ular asosida  $Zn_{2-x}Co_xSiO_4$  qattiq eritmalarining hosil bo'lishi aniqlangan va ularning fazaviy bog'liqlik diagrammalari qurilgan.
6. Kremniy oksidini mikrokremnezyom bilan almashtirib keramik pigment namunalari sintez qilingan, ranglar palitrasi sintez qilish haroratining 150°C gacha pasayishi bilan och ko'k rangdan binafsha-ko'k ranggacha o'zgarishi ko'rsatilgan.
7. Olingan villemmit strukturali pigmentlar namunalarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va sintez qilish bo'yicha tadqiqot natijalari tajriba ishlab chiqarish sinovlari orqali tasdiqlangan va keramik koshinlar uchun ular asosida olingan kobaltli pigmentlar va glazurlarning sintez qilingan namunalarining ko'rsatkichlari amaldagi talablariga to'liq mos kelishi aniqlangan;
8. Olingan ilmiy natijalardan keramik pigmentlar sintezinig yuqori haroratli jarayonlarini va ularni mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqarish jarayonida fazaviy o'zgarishlarni fizik-kimyoviy o'rganish uchun qo'llanma material sifatida foydalanish va xomashyo bazasini kengaytirish, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishga hissa qo'shishi mumkinligi ko'rsatilgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/05.05.2023.К/Т.35.02 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТЕ  
ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

---

**ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

**КОДИРОВА УМИДА АСЛОНОВНА**

**СИНТЕЗ И СВОЙСТВА КЕРАМИЧЕСКИХ ПИГМЕНТОВ НА  
ОСНОВЕ ТВЕРДЫХ РАСТВОРОВ ВИЛЛЕМИТОВОЙ СТРУКТУРЫ**

**02.00.15- Технология силикатных и тугоплавких неметаллических материалов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2024.4.PhD/K905 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Институте общей и неорганической химии АН РУз.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета [www.iohx.uz](http://www.iohx.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Кадырова Зулайхо Раимовна</b> доктор химических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Закиров Бахтияр Сабиржанович</b> доктор технических наук, профессор <b>Руми Марина Христофоровна</b> кандидат химических наук, с.н.с.
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Ферганский политехнический институт</b>

Защита диссертации состоится «11» февраля 2025 году в «14<sup>00</sup>» часов на заседании разового Научного совета DSc.02/05.05.2023.К/Т.35.02 при Институте общей и неорганической химии АН РУз. по адресу: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а. Тел.: (+99871) 262-56-60; e-mail: [iohx@academy.uz](mailto:iohx@academy.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Института общей и неорганической химии (указан под № 55). (Адрес: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а. Тел.: (99871) 262-56-60).

Автореферат диссертации разослан «28» января 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 55 от «28» января 2025 года).



  
**Н.Х. Усанбаев**  
председатель разового научного совета  
по присуждению ученой степени, д.т.н., проф.

  
**Ж.С. Шукуров**  
ученый секретарь разового научного совета  
по присуждению ученой степени, д.т.н., проф.

  
**Ш.С. Намазов**  
председатель разового научного семинара  
при разовом научном совете по присуждению  
ученой степени, д.т.н., проф. академик

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире в области современного материаловедения большое внимание уделяется развитию фундаментальных исследований в направлении материалов, устойчивых к высоким температурам. Одним из важных и перспективных направлений в этой области является производство керамических пигментов на основе кристаллических структур шпинели, корунда, граната, виллемита. Следует отметить, что керамические пигменты в основном синтезируются в диапазоне температур 1300-1400 °С из дорогостоящего, дефицитного, высококачественного сырья и в большинстве случаев с использованием химических реагентов. Керамические пигменты, синтезированные при высокой температуре, используются в производстве глазурей, ангоб, покрытий для фарфора, керамики, стекла, в строительной индустрии. Поскольку, декорирование обожженных и спеченных изделий имеет актуальное значение, развитие этих промышленности невозможно представлять без наличия красок - пигментов с необходимой цветовой гаммой.

В мире в настоящее время проводятся научно-исследовательские работы по синтезу высокотемпературных пигментов, использованию их в составах глазурей для декорирования различных керамических материалов, а также улучшению их функциональных, физико-технических и эстетических свойств. В этом плане уделяется особое внимание синтезу керамических пигментов с различной кристаллической структурой; управлению процессами физико-химических и фазовых превращений при термической обработке сырьевой шихты пигмента на основе поликомпонентных систем при высоких температурах; определению изоморфного замещения оксидов цинка, кобальта и кремния под влиянием высокой температуры, а также кинетике и механизму образования новых кристаллических фаз в виде твердого раствора виллемитовой и оливиновой структуры, в результате твердофазной химической реакции; установлению функциональной зависимости «состав-структура-дисперсность-свойство» при обжиге различных температурах.

В республике достигнуты определенные научные и практические результаты и осуществляются широкомасштабные мероприятия по исследованию процессов получения керамических пигментов на основе различных химических реагентов, с использованием природных гематитовых, глауконитовых пород, глинистых охр с различной цветовой гаммой для разработки состава глазурных покрытий и определению их функциональных и эстетических свойств. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 гг. отмечено, что необходимо расширить сырьевую базу за счет вовлечения нетрадиционных нерудных сырьевых и вторичных ресурсов, разработать и внедрить безотходную технологию в рамках «Зеленой экономики»<sup>1</sup>. В связи с этим актуально проведение научно-

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы».

исследовательской работы по синтезу керамических пигментов различной структуры многоцелового назначения на основе отечественных сырьевых компонентов.

